

**HUKUMAT A'ZOLARI MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

Allambergenov Saparbay Dauletbayevich

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Malaka oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Allambergenov Saparbay Dauletbayevich

*Associate professor of the Institute of professional development of the Ministry
of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, doctor of philosophy in Legal
Studies (PhD)*

Annotatsiya: *Maqolada suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomi va Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati organlari bo'linish prinsipiga asoslanishi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati Raisi va a'zolarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini Konstitutsiya va tegishli qonun hujjatlarda belgilash taklifi ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *“Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi”, “Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari”, “Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati Raisi”, “Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati a'zolari”.*

***IMPROVING THE STATUS OF MEMBERS OF THE GOVERNMENT
(ON THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN)***

Abstract: *The article considers the status of the sovereign Republic of Karakalpakstan and the principle of separation of state power in the Republic of Karakalpakstan, as well as a proposal to determine the constitutional and legal status of the Chairman and members of the Government of the Republic of Karakalpakstan in the Constitution and relevant legal documents.*

Keywords: *"Sovereign Republic of Karakalpakstan", "State authorities of the Republic of Karakalpakstan", "Chairman of the Government of the Republic of*

Karakalpakstan", "Members of the Government of the Republic of Karakalpakstan".

Kirish. Ma'lumki, bugungi kunda hukumatning davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rnini belgilash, uning konstitutsiyaviy-huquqiy vakolatlarini aniqlashtirish va parlament oldidagi hisobdorligini oshirish, shuningdek, hukumat tarkibini shakllantirishning huquqiy mexanizmini takomillashtirish orqali hukumat a'zolari maqomi va ularning faoliyatini baholash hamda hukumatning boshqa davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Fikrimizcha, xorijiy davlatlarda hukumat tarkibi davlat boshqaruv shakli asosida shakllantiriladi. Jumladan, **prezidentlik** (Amerika qo'shma shtatlari, Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Turkiya, Belarus, Armaniston, Gruzziya, Moldova, Filippin, Salvador, Argentina, Braziliya, Venesuela, Kolumbiya, Peru, Ekvador, Yegipet, Irlandiya, Islandiya, Portugaliya), **parlamentar** (Germaniya, Kanada, Koreya, Yangi Zelandiya, Bangladesh, Isroil, Mongoliya, Bolgariya, Polsha, San-Marino, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya, Estoniya) va prezidentlik boshqaruv shaklidagi parlamentar davlatlar boshqaruvi, ya'ni, **aralash boshqaruvi** (Avstriya, Vengriya, Gretsiya) shakllari mavjud bo'lib [1.S.33,..786], ushbu boshqaruv shakllari asosida hukumat tarkibi shakllantiriladi.

Prezidentlik boshqaruvda hukumat tarkibi Prezidentning siyosiy irodasiga bog'liq bo'lib, uning asosiy yetakchiligi ostida (hukumat Raisini tayinlash va lavozimidan ozod etishda parlamentning roziligi asosida) shakllantiriladi. Bunda Prezident hukumat tarkibiga nomzodlarni tanlash va tayinlashda asosan mustaqil ravishda (ayrim hollarda hukumat Raisining taqdimiga muvofiq) harakat qiladi.

Parlamentar boshqaruvida hukumat tarkibi parlamentning bevosita ishtiroki va rahbarligida, shuningdek, parlament tarkibidan shakllantiriladi. Ushbu boshqaruv shaklida asosiy shart sifatida hukumat parlamentning to'la ishonchini qozonishi talab qilinadi. Shuningdek, davlat boshlig'i bo'lgan Prezident (yoki respublika Rahbari)

parlamentning qabul qilgan qarori asosida hukumat tarkibidagi mansabdor shaxslarni tayinlaydi yoki lavozimidan ozod etadi.

Aralash boshqaruvida hukumat tarkibi Prezident va parlamentning bevosita ishtiroki asosida shakllantiriladi. Ya'ni, prezident parlamentdagi ko'pchilikning munosabati asosida hukumat tarkibini shakllantiradi. Sababi, aksariyat mamlakatlarda hukumat o'z faoliyatini amalga oshirishi oldidan parlamentning to'la ishonchini qozonishi shart hisoblanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo ayrim davlatlar, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi ayrim respublikalarning tajribalarini yoritishga harakat qilamiz. Xususan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belarus, Tatariston va Boshqirdistonda hukumat tarkibi Bosh vazir, uning o'rinbosarlari va boshqaruv organlari rahbarlaridan iborat tarkibda tashkil etilgan. Ushbu mamlakatlarda hukumat faoliyatiga Prezident oldida javobgar bo'lgan va faoliyatining ayrim masalari bo'yicha parlament oldida hisobdor hisoblangan Bosh vazir boshchilik qiladi. Turkmaniston va Boshqirdistonda esa, hukumat faoliyatiga davlat boshlig'i bo'lgan Prezident (yoki respublika Rahbari) boshchilik qiladi.

Ushbu mamlakatlarda hukumat tarkibi asosan davlat boshqaruv shakli asosida turli xil tartibda shakllantiriladi. Chunonchi, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Belarus, Tatariston va Boshqirdistonda hukumat tarkibidagi aksariyat mansabdor shaxslar mamlakat Prezidentining asosiy yetakchiligi ostida shakllantiriladi.

Mazkur davlatlarning hukumat tarkibini shakllantirish mexanizmida davlat boshlig'i va parlament o'rtasidagi munosabatlar ham turli xil tartibda belgilangan. Xususan, *Qozog'istonda* hukumat tarkibi Prezidentning asosiy yetakchiligi ostida (Bosh vazirni tayinlash va ozod etishda parlament majlisi muhokamasi va tasdig'i asosida) shakllantiriladi. Bosh vazirning taqdimiga muvofiq Prezident hukumat tuzilishini belgilaydi, markaziy organlarni tugatadi yoki qayta tashkil etadi. Prezident hukumat a'zolari va vazirlar (Tashqi ishlar, Mudofaa, Ichki ishlar va Adliya vazirlari)ni tayinlaydi [2].

Turkmanistonda hukumat yangi saylangan Prezident oldida o'z vakolatlarini topshiradi. Hukumatga Prezident raislik qiladi va uning tarkibiga hukumat Raisi o'rinbosarlari va vazirlardan tashqari boshqa markaziy organ rahbarlarini kiritishga haqli. Prezident o'z lavozimiga kirishganidan so'ng hukumat bir oy ichida (Ichki ishlar va Adliya vazirlarini tayinlash va lavozimidan ozod etishda parlament bilan kelishilgan holda) shakllantiradi. Agarda Prezident Konstitutsiya va qonun hujjatlarni buzsa, parlament unga nisbatan ishonchsizlik bildirishi mumkin. Prezidentga nisbatan ishonchsizlik masalasi parlamentning uchdan ikki qismidan kam bo'lmagan deputatlarning talabi asosida ko'rib chiqiladi. Prezidentga nisbatan ishonchsizlik qarori belgilangan parlament deputatlarining to'rt dan uch qismi ovozi bilan qabul qilinadi [3].

Qirg'izistonda hukumat tarkibi va tuzilishi Prezident va parlamentning asosiy yetakchiligi ostida shakllantiriladi [4].

Belarusda hukumat tarkibi Prezidentning asosiy yetakchiligi ostida (Bosh vazirni tayinlashda Milliy Majlisning vakillar palatasi muhokamasi va tasdig'i asosida) shakllantiriladi. Agarda Prezident Bosh vazir lavozimiga kiritgan nomzodi parlamentning vakillar palatasi tomonidan ikki marta rad etilsa, Prezident Bosh vazir vazifasini bajaruvchisini tayinlashga, parlamentning vakillar palatasini tarqatib yuborishga hamda yangi saylov tayinlashga haqli. Bosh vazirning o'rinbosarlari, vazirlar va davlat qo'mita raislari Prezident tomonidan tayinlanadi [5].

Tataristonda hukumat tarkibi (barcha ijro organ rahbarlari) Tatariston Prezidentining asosiy yetakchiligi ostida (parlamentning muhokamasi va tasdig'i asosida) shakllantiriladi. Hukumat Prezident oldida mas'ul bo'lib, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha parlament oldida hisobdor hisoblanadi. Yangi tashkil etilgan hukumat parlamentga o'z vakolatlari muddati davomida amalga oshiradigan faoliyat dasturini taqdim etadi. Parlament Bosh vazir va uning o'rinbosarlariga saylangan deputatlarning ko'pchiligi ovozi bilan ishonchsizlik bildirishi mumkin, bu ularning iste'foga chiqishiga olib keladi [6].

Boshqirdistonda hukumat tarkibi respublika Rahbarining asosiy yetakchiligi ostida (Bosh vazirni tayinlash va lavozimidan ozod etishda parlamentning muhokamasi va tasdig‘i asosida, shuningdek, Bosh vazirning taqdimiga muvofiq esa, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mita boshliqlari va boshqa idora rahbarlari) shakllantiriladi. Hukumatga respublika Rahbari boshchilik qiladi. Hukumat tarkibiga Bosh vazirning taqdimiga asosan boshqa davlat tashkilotlarning rahbarlarini kiritishga haqli. Hukumat respublika Rahbari vakolatlari muddati doirasida faoliyat ko‘rsatadi va yangi lavozimga kirishgan respublika Rahbari oldida o‘z vakolatlarini topshiradi. Yangi tashkil qilingan hukumat respublika Rahbari va parlament tomonidan ko‘rib chiqishi uchun o‘z vakolatlari muddatiga mo‘ljallangan kelgusi faoliyati dasturini taqdim etadi [7].

Yuqoridagi xorijiy tajribalarda hukumat tarkibi va uni shakllantirish mexanizmida barchasi uchun umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu o‘ziga xoslik avvalo, har bir mamlakatning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi hamda davlat hokimiyati bo‘linishi printsipi asosida hukumat va uning a'zolari maqomi huquqiy jihatdan belgilangan. Shuningdek, hukumat tarkibini shakllantirishda davlat boshlig‘i Prezident (yoki respublika Rahbari)ning o‘rni muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, parlamentning ham keng ishtiroki huquqiy jihatdan belgilangan. Shu bilan birga, hukumat tarkibini shakllantirish mexanizmida ishtirok etuvchi Prezident (yoki respublika Rahbari) va parlament o‘rtasida demokratik printsiplar ham joriy etilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, hukumat va uning a'zolari o‘zlariga yuklatilgan xizmat majburiyalari bo‘yicha avvalo, davlat boshlig‘i Prezident (yoki respublika Rahbari) oldida bevosita javobgar bo‘lsa, faoliyatining asosiy masalalari yuzasidan parlament (yoki uning quyi palatasi) oldida hisobdorligini qayd etishimiz mumkin.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tarkibida parlament boshqaruv shakliga ega bo‘lgan suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasida [8] hukumat tarkibi – Vazirlar Kengashi Raisi, uning o‘rinbosarlari, vazirlar va boshqa idora rahbarlaridan [9] iborat.

Qonun hujjatlarda [10] Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi o‘z lavozimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritilgan.

Qonun hujjatlarga [11] asosan, hukumati Raisi parlament Raisi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Rahbarining [12] belgilangan tartibda kiritgan taklifiga binoan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi parlamenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Hukumat Raisining taklifiga muvofiq esa, uning o‘rinbosarlari va hukumat a'zolari (vazirlar va boshqa idora rahbarlari) parlament tomonidan, agar sessiyalar davrida parlament Prezidiumi tomonidan, keyinchalik Qoraqalpog‘iston Respublikasi parlamenti tasdig‘i bilan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi [13].

Shu o‘rinda Tatariston va Boshqirdiston hukumati tarkibi va uni shakllantirish mexanizmlari bilan suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati tarkibi va uni shakllantirish mexanizmlarini qiyosiy-huquqiy jihatdan taqqoslanganda Tatariston va Boshqirdiston hukumati tarkibidagi mansabdor shaxslar va ularning huquqiy maqomi respublika maqomi asosida konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan belgilanganligiga guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, ushbu davlatlarning hukumatlari tarkibini shakllantirishda esa, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan demokratik printsiplari joriy qilinganligi bilan ajralib turadi.

Ammo, suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi [14] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati tarkibi va uni shakllantirish mexanizmini modernizatsiyalashga doir biron-bir ma'muriy islohotlar amalga oshirilmagan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa. Darhaqiqat, bugungi kunda hayot va zamonning shiddat bilan o‘zgarishi, jahon miqyosida globallashuv va raqobat muhitining kuchayishi, shuningdek, xalqlarning siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi hamda fuqarolarning ertangi kundagi farovon hayotga bo‘lgan ehtiyoji va talablarining tobora ortib borishida bevosita xalq manfaatlari uchun mas'ul va

javobgar bo'lgan davlat hokimiyati, shu jumladan, hukumat faoliyatining o'zni muhimdir. Zero, ...ijro hokimiyat faoliyati qonunlarning ijrosini samarali ta'minlash bilan birga, ushbu hokimiyat tarmog'i davlat xizmatchilarining va davlat organlarining katta qismini o'z ichiga olishi, muhimi, o'z qo'lida katta ma'muriy va moliyaviy mablag'larni o'zida jamlaganligi bois, uning faoliyati yuzasidan davlat nazoratini ...kuchaytirish zarur. Shu bois hukumat tarkibi va uni shakllantirish mexanizmidan har bir davlatning tarixi va o'ziga xos xususiyatlari asosida, shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsiplari va normalariga tayanib hamda xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini inobatga olib yanada takomillashtirib borishni davrning o'zi talab etmoqda. Shu sababli, Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati tarkibi va uni shakllantirishning huquqiy mexanizmini avvalo, suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi asosida, shuningdek, respublikada davlat hokimiyati huquqiy jihatdan bo'linganligidan kelib chiqib hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalarini inobatga olib, yanada modernizatsiyalashga doir ma'muriy islohotlar quyidagicha amalga oshirilishi lozim, deb hisoblaymiz:

1) Ma'lumki, Sobiq Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibidan birinchilardan bo'lib O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan edi. Mustaqillikning ilk kunlarida O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga bosh maqsadi qilib *"huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish"* hamda *"o'tmishda o'z umrini o'tab bo'lgan Sobiq Sovet davridagi eski ma'muriy buyruqbozlik tizimidan butunlay voz kechish va bunday tuzumga aslo ortga qaytmaslik"*ni belgilagan edi.

Nazarimizda, mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar o'z navbatida mustaqil O'zbekiston Respublikasi va uning tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasiga ham bir maromda taalluqlidir. Shu sababli, suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati, shu jumladan, hukumat faoliyatida hozirgi kunga qadar eski Sobiq Sovet davridan *"meros bo'lib"* o'tgan boshqaruv mexanizmidan butunlay voz kechishga zamonning o'zi talab etmoqda. Xususan,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati Raisining maqomi hozirga qadar O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyalari va tegishli qonun hujjatlarda konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan to‘liq tartibga solinmagan. Ya'ni, hukumat Raisi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati va uning tarkibidagi boshqaruv organlari faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirib kelayotgan bo‘lsada, Konstitutsiya va qonun hujjatlarda hukumat Raisining maqomi o‘z lavozimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hukumati tarkibiga kiritilgan, shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tarkibida ham muayyan bir huquqiy maqomga ega emasligini alohida e'tirof etish mumkin.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarida belgilangan demokratik qoidalarga to‘xtalishni joiz topdik. Xususan, 2002-yil 12-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunning 15-moddasida “Oliy Majlis Senati Raisining o‘rinbosarlaridan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakili”, shuningdek 2017-yil 31-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida esa, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga saylanadigan sudyalor orasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakili” bo‘lishiga doir qoidalar belgilangan.

Ushbu qoidalar bevosita O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi parlamentlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi o‘rtasidagi munosabatlarni samarali ta'minlashga xizmat qiladi, deb e'tirof etish mumkin. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi maqomini inobatga olib, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham davlat hokimiyati bo‘linishi printsiplari belgilanganligidan kelib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatlari o‘rtasidagi munosabatlarni ta'minlashda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Vazirlar Kengashining doimiy vakolatxonasi faoliyati tashkil etilganligiga tayanib, O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining tegishli normativ-huquqiy hujjatlarida

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi” deb belgilangan qoidani qayta ko‘rib chiqish orqali Vazirlar Kengashi Raisining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini belgilash zaruriyati nihoyatda dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Agarda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida hukumat Raisining maqomi konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan yanada aniqlashtirilsa, bu, o‘z navbatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqaruvida ham davlat hokimiyati bo‘linishi printsipli yanada tartibga solinishiga huquqiy zamin yaratgan bo‘lar edi.

2) Hukumat tarkibini belgilovchi Qoraqalpog‘iston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilinganda, faqatgina respublika «Vazirlar Kengashi to‘g‘risida»gi qonuni 5-moddasida hukumat tarkibi huquqiy jihatdan tartibga solinganligiga guvoh bo‘lamiz. Ammo, hukumatning asosiy faoliyatini tartibga soluvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasida hukumat tarkibi konstitutsiyaviy qoidalar bilan tartibga solinmagan.

Ma'lumki, respublika normativ-huquqiy hujjatlari tizimida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan Asosiy qonun hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiya asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Yuqoridagi huquqiy tahlillarni inobatga olib, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasida hukumat tarkibini belgilovchi konstitutsiyaviy qoidalar belgilanishi lozim, deb hisoblaymiz.

O‘ylaymizki, ilmiy tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ushbu takliflarni soha olimlari hamda huquqni qo‘llash subyektlari tomonidan chuqur o‘rganiladi.

Fikrimizni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qo‘yidagi kontseptual g‘oyalari bilan yakunlaymiz. ***“Bizning oliy va ezgu maqsadimiz – birgalikdagi fidokorona mehnatimiz bilan Yangi O‘zbekiston tarkibida Yangi Qoraqalpog‘istonni bunyod etishdir”***. [15]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bushuyeva L.P. Vse strani mira. Polniy spravochnik. Vse flagi i gerbi. – rostov n/D: Vladis: – M.: RIPOl klassik, 2009. S. 33, 74, 83, 104, 109, 114, 119, 139, 182, 185, 197, 207, 228, 232, 316, 352, 387, 400, 407, 478, 615, 625, 633, 649, 653, 669, 672, 681, 685, 713, 717, 728, 738, 748, 753, 762, 768, 776, 786.

2. Qozog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Astana, Aqorda., 1995. 44-m. // URL: http://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution - murojaat qilingan sana – 11.11.2022; Qozog‘iston Respublikasining «Qozog‘iston Respublikasi Hukumati to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonuni. – Astana, Aqorda., 1995. 3-m. // URL: http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1003973#pos=6;-238 - murojaat qilingan sana – 01.11.2022;

3. Turkmaniston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Ashxabad., 2006. 53, 57,

4. Qirg‘iziston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Bishkek., 2010. 83-87-m. // URL: http://www.gov.kg/?page_id=263&lang=ru - murojaat qilingan sana – 01.03.2022.

5. Belarus Respublikasining Konstitutsiyasi. – Minsk., 1994. 106-m. // URL: <http://www.pravo.by/main.aspx?guid=14551> - murojaat qilingan sana – 01.03.2019; Belarus Respublikasining «Vazirlar Kengashi to‘g‘risida»gi Qonuni. – Minsk., 2008. 5-m. // URL: <http://www.pravo.by/main.aspx?guid=3871&p0=H10800424> - murojaat qilingan sana – 04.04.2022.

6. Tatariston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Kazan., 2012. 94, 100-101-m. // URL: <http://docs.cntd.ru/document/917001793> - murojaat qilingan sana – 01.03.2022.

7. Boshqirdiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Ufa., 1993. 71, 87, 91, 93-95-m. // URL: http://constitution.garant.ru/region/cons_bashkor/ - murojaat qilingan sana – 01.03.2019.

8. URL – <http://parliamentrk.gov.uz/uz> – murojaat qilingan sana – 09.04.2022.; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasiga asosan, Qoraqalpog‘iston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Jo‘qorg‘i Kengesi ish olib borishiga doir konstitutsiyaviy qoida belgilangan.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Vazirlar Kengashi to‘g‘risida»gi qonuni. 1998. N., 5-m. // URL: <http://sovminrk.gov.uz> - murojaat qilingan sana – 09.04.2022.

10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2023. 114-m // <https://lex.uz/docs/6445145>- murojaat qilingan sana – 08.08.2023; Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – N., 2006. 88-m // <https://lex.uz/docs/4953674>-murojaat qilingan sana – 08.08.2023; O‘zbekiston Respublikasining «Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonuni. – T., 2003. 5-m // <https://lex.uz/docs/4636594>-murojaat qilingan sana – 08.08.2023; Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Vazirlar Kengashi to‘g‘risida»gi qonuni. – N., 1998. 15-m.

11. Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Vazirlar Kengashi to‘g‘risida»gi qonuni. 1998. N., 5-m; Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Jo‘qorg‘i Kengesi to‘g‘risida»gi qonuni. 1998. N., 4, 14-m.

12. Izoh: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasiga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Rahbari va eng oliy lavozimli shaxsi sifatida uning huquqiy maqomiga doir qoida belgilangan. Shu sababli, keyingi matnlarda parlament Raisi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Rahbari deb yuritiladi. // URL: <http://parliamentrk.gov.uz/uz/dokumenti/konstitucija-respubliki-karakalpakstan/> - murojaat qilingan sana – 04.09.2018.

13. Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Jo‘qorg‘i Kengesi to‘g‘risida»gi qonuni. – N., 1998. 4-m.

14. Muxamejxodjayeva X.R. Ijro hokimiyati faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazorati: nazariy-huquqiy muammolari: Yurid. fan. nomz. dis. ...avtoref. – T., 2011. – B. 7–8.